



THE PROBLEM OF THE INTERRELATION BETWEEN THE ETHICAL PRINCIPLES OF COLLECTIVISM AND INDIVIDUALISM

Gulzira Karimova

Senior Lecturer of the "Philosophy" Department
Tashkent State University of Economics
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Individuality, collectivism, despotic, rationality, objectivity, subjectivity.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 03.12.25

Abstract: This article analyzes the essence of collectivism and individuality, as well as their relationship with the social sciences, using examples from Western and Eastern societies. It is explained that collectivism and individuality are essential characteristics of social relations and human spirituality, and that under the influence of objective and subjective factors they may take on different proportions.

JAMOAVIYLIK VA INDIVIDUALLIK AXLOQIY TAMOYILLARINING O'ZARO NISBATI MUAMMOSI

Gulzira Karimova

"Falsafa" kafedrasi katta o'qituvchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Individuallik, jamoaviylik, despotik, ratsionallik, obyektivlik va subyektivlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoaviylik va individuallikning mohiyati uning ijtimoiy fanlar bilan aloqasi g'arb va sharq jamolari misolida tahlil qilingan. Jamoaviylik va individuallik ijtimoiy munosabatlar va inson ma'naviyatining zarur xususiyatlaridan bo'lib, ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida u yoki bu nisbatni kasb etishi bayon qilingan.

ПРОБЛЕМА ВЗАИМНОГО СООТНОШЕНИЯ ЭТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ КОЛЛЕКТИВИЗМА И ИНДИВИДУАЛИЗМА

Гулзира Каримова

Старший преподаватель кафедры «Философия»

Ташкентский государственный экономический университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Индивидуализм, коллективизм, рациональность, субъективность.	Индивидуализм, деспотичность, объективность,	Аннотация: В данной статье проанализирована сущность коллективизма и индивидуализма, а также их связь с социальными науками на примере западных и восточных обществ. Поясняется, что коллективизм и индивидуализм являются важными характеристиками социальных отношений и духовности человека, и под влиянием объективных и субъективных факторов могут принимать различные соотношения.
---	--	--

Kirish. Jamoaviylik va individuallik ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni psixologiya, madaniyatshunoslik, politologiya, iqtisodiyot, falsafa va boshqa fanlar o'z predmetidan kelib chiqib tadqiq qilishadi. So'nggi yillarda bu muammoni ilmiy o'rganish jamiyat axborotlashuvining kuchayishi, axborotlashgan jamiyatga xos unsurlarning yoyila borishi munosabati bilan birmuncha kuchaydi, qator tadqiqotlar yaratildi[1;1012].

Odatda, madaniyatni 2 turga: jamoaviylik ustuvor bo'lgan madaniyat yoki individuallik ustuvor bo'lgan madaniyatga ajratadilar. Hozirgi davrda Sharq madaniyati jamoaviylikka, G'arb madaniyati individuallikka asoslanadi, degan fikr ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olinadi. Biz ko'p qirrali bu tushunchalarning turli davrlardagi mazmuni, mavjud nazariyalari to'g'risida bahs ochmasdan[2;134], biz uchun muhim bo'lgan ayrim jihatlariga to'xtalamiz.

Xo'sh, nega Sharq madaniyatida jamoaviylik ustuvor ahamiyat kasb etib qoldi?

Sharq mamlakatlarida yashashning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari qulayligi tufayli hayot kechirish nisbatan osonroq bo'lganligi bois, odamlarni boshqarish, birlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etgan, shu maqsadda boshqaruvchi organlar (davlat) keng huquqlarni o'zida saqlab, aholi erkinligini imkon qadar cheklashga harakat qilgan. Sharq despotik davlatlarida o'ziga xos "Osiyocha ishlab chiqarish" usulining qaror topganligi ham shu holat bilan izohlanadi. Davlat hokimiyati oldidagi ojizlik mulkdorlar tarafdorlari, qarindoshlari, yor-birodarlarini o'z atrofida to'plashga, birlashishga, urug' jamoaviyligi orqali o'zlari va mulklarini himoya qilishga, davlatga qarshi turishga, moddiy boyliklari, iqtisodiy imkoniyatlarini saqlab qolishga urinishgan. Natijada, urug'-aymoqchilik rivojlanib, kattalarga, rahbarlarga bo'ysunish, ularga alohida hurmat va xizmat qilish kayfiyatlari ustun bo'la borgan. Urug'-aymoqning oddiy a'zolari urug'

egalari panohi ostida, erksiz, jamoaga, uning tartib-qoidalariga itoat qilib yashashgan. Aholi faoliyatida urug'-aymoqchilik, jamoaviylik manfaatlarining ustun bo'lishi davlat hokimiyati faoliyatini ham soddalashtirishga olib kelgan, boshqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratgan. Jamoaviylik butun jamiyat, davlat miqyosida ustun tamoyilga aylangan. Uning mamlakat miqyosida qaror topishi jamiyat barqarorligiga, qaror topgan tartib-qoidalar, urf-odatlarini saqlab qolishga xizmat qilgan.

Metodlar. Yevropaning qator mamlakatlarida ijtimoiy-axloqiy munosabatlar biroz boshqacha yo'nalishda rivojlangan. Bu yerlarda tabiiy-yashash sharoitlari shaxslarning erkin faoliyatiga yo'l ochishga majbur qildi. Shaxslar butun imkoniyatlarini ishga solib, o'z moddiy hayotlarini ta'minlashga, shu bilan birga, davlat soliqlarini to'lashga majbur edi. Bu sharoitda shaxs erkinligi, faoliyat erkinligi rivojlandi. Ayniqsa, shaharlarning shakllana boshlashi individual faoliyat erkinligi uchun qulay sharoit yaratdi. Ammo, Sharqda shaharlarning rivojlanishi shaxsning jamoatchilikka munosabati masalasida o'ziga xosligini saqlab qoldi. Urug'-aymoqchilikning chuqur ildiz otgan, aholi sonining ko'pligi shaharlarning mahalla-mahalla bo'lib shakllanishiga olib keldi. Bunda biror urug' u yoki bu ishlab chiqarish sohasini egallab olar, mahalla ahlining hammasi bir-birini tanir, urug' a'zolari va begona kishilar yaqqol ajralib turardi. Jamoaviylik dunyoqarashi, urf-odat va an'analarning ustuvorligi, shaxs erkinligining jamoa manfaatlariga to'la bo'ysundirilishi saqlab qolindi. Jamoaviylik dunyoqarashining ustun mavqei yanada mustahkamlandi. Jamoaviylikka axloqiy tamoyil sifatida G'arb olimlarida turli munosabatlar mavjud. K.Popper individuallikni ratsionalizm va gumanizm bilan mahkam bog'laydi. Ochiq jamiyat, K.Popper fikricha, jamoaviylikni siqib chiqaradigan, individuallikni hukmron tamoyilga aylantiradigan jamiyatdir. U o'z mulohazalarida "individuallik" va "egoizm" tushunchalarini aralashtirib yubormaslikni, individuallikni jamoaviylik bilan, egoizmni altruizm bilan mantiqiy oppozitsiyada olib qarash lozimligini uqtiradi. Altruistik individuallikka ko'pgina mashhur kishilarning jamoa manfaati yo'lida jasoratidan misollar keltirish mumkin. Altruistik individuallik o'z-o'zini ham, boshqa individlarni ham hurmat qilishga asoslanadi.

Haqiqatan ham altruizm bilan birlashgan, insoniy mas'uliyat bilan bog'liq individuallik to'g'ri axloqiy tamoyildir. Unga asoslangan liberalizm mafkurasi qullikka, totalitarizmga, irqiy, etnik, diniy va boshqa ayirmachiliklarga qarshi, qonun ustuvorligi uchun kurashda katta tarixiy ahamiyat kasb etdi.

K.Popper kelgusi jamiyatga mavhum jamiyat, jamoaviylik istiqboli yo'q tamoyil, deb qaraydi. Ammo hozirgi zamon jamiyatidagi axloqni, real axloqiy munosabatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, qator jiddiy muammolar namoyon bo'ladi. Ayrim rivojlangan G'arb mamlakatlari

yoshlarida jamoaviylikning kuchsizlanishi oqibatida individualistik turmush tarzi insoniyat uchun halokatli bo'lgan egoizmga yo'l ochmoqda, umuminsoniy axloqqa zid, noaxloqiy ijtimoiy jarayonlarning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Yevropada shaharlarning shakllanishi birmuncha boshqa sharoitda kechdi. Turli tomonlardan kelgan, madaniyatlari, dunyoqarashlari, e'tiqodlari, kasb-korlari turlicha bo'lgan kishilar shahar aholisini tashkil qila boshladi. Ularning bir-birlari bilan munosabatlari (iqtisodiy, ma'naviy) erkinlikka asoslanardi. Natijada, jamoaviylik tafakkuridan individuallik tafakkuri ustun mavqeni egallay boshladi. Shaharning odami o'zi istagan faoliyati bilan shug'ullanishi, o'z hayotini o'zi ta'minlashi, boshqacha aytganda, shaxs nimaga qodir bo'lsa, shunday hayotga ega bo'lishi mumkin edi. Individuallik insonni faqat o'z kuchiga tayanishga, o'z layoqatini rivojlantirishga, butun jismoniy va intellektual imkoniyatlarini ishga solishga majbur qildi.

Jamoaviylik va individuallik dunyoqarashlari jamiyatlar qiyofasini, davlat hokimiyatining jamiyat bilan, kishilar bilan munosabatini belgilashda o'z izini qoldirdi. Bu Sharq va Yevropadagi ta'limotlarda ham o'z ifodasini topgan. Sharqda davlatga nisbatan hamma narsadan ustun, ilohning yerdagi vakili, davlat boshlig'i esa yagona hukmron kuch sifatida talqin qilinishi saqlanib qolindi. Sharq mafkuralari ana shu g'oya asosiga qurilgan. Alisher Navoiy aytadi: hukmdor dengizdir, xalq esa undan suv oladigan daryo, dengizning suvi sho'r bo'lsa, daryo suvi ham sho'r bo'ladi, dengizning suvi achchiq bo'lsa, daryoning suvi ham achchiq bo'ladi. Ya'ni, hamma narsa hukmdorga bog'liq.

G'arb mamlakatlarida esa bu davrda mafkura erkin tadbirkorlikning rivojlana borishi bilan o'zgacha yo'nalishda shakllandi: davlat – tungi qorovul, uning asosiy vazifasi aholini tashqi dushmanlardan qo'riqlash, shaxslarning erkin faoliyatlariga aralashmasligi kerak (liberalizm).

Natijalar. Xullas, jamoaviylik va individuallik tamoyillarining madaniyatdagi nisbati – tabiiy-tarixiy taraqqiyot natijasi. Ularning o'zaro nisbati jamiyat ijtimoiy munosabatlar xarakterini kishilarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Jamoaviylik jamiyat hayotida qator ijobiy xususiyatlarga ega bo'ldi. Jamiyat barqarorligini saqlash, jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlarni, ajdodlar hayoti davomida erishilgan axloqiy-huquqiy va boshqa tamoyillarni avlodlar ongiga singdirish, yuksak insoniy fazilatlarini rivojlantirish, ko'pchilikning e'tiqodini hurmat qilish, jamoa manfaatlariga ustun tamoyil sifatida munosabat, bir so'z bilan aytganda, jamoat (jamiyat) axloqining "sof", ya'ni ajdodlar axloqi singari bo'lishi jamoaviylik tamoyilining natijasidir. Keksalarga, rahbarlarga, aka-uka va qarindoshlarga, do'stu birodarlarga sadoqat va hurmat, ularga xizmat qilish kabi axloqiy hodisalarda ham jamoaviylik tafakkurining o'rni beqiyos.

Jamoaviylik individuallikni mutlaq, to'liq inkor qilmaydi. Aks holda an'anaviy jamiyatlarning taraqqiyoti mumkin bo'lmagan bo'lur edi. Turli sohalarda individual sifatlari bilan nom qozongan shaxslarning faoliyati buning isbotidir. Ammo jamoaviylik mutlaqlashtirilganda, individuallikni o'ziga to'la bo'ysundirishga uringanda, ular o'rtasida ziddiyat vujudga keladi, individuallikning erkin rivojiga to'siq bo'lib qoladi. Jamoaviylik mutlaq hukmronligi sharoitida individuallik ayrim elitar shaxslardagina o'zini namoyon qila olgan.

Individuallik shaxsning imkoniyatlarini erkin namoyon qilishga turtki beruvchi axloq tamoyilidir. U inson o'z faoliyatiga o'zi mas'ul bo'lishi, jamoa panohiga bekinmasdan, o'z kuchini, layoqatini namoyon qilishi demakdir.

Ishlab chiqarish ommaviy xarakter kasb etmagan, xususiy tadbirkorlik jamiyat hayotida yuksak mavqeda bo'lmagan davrda individuallik oz sonli, tanlangan shaxslarning faoliyatida rivoj topdi, oddiy shaxslar, keng mehnatkashlar ommasi esa jamoaviylik tafakkuri doirasida qolib, ijrochi, bo'ysunuvchi, jamoa panohida unga to'la bo'ysunib yashash tarzida qolib ketishga majbur bo'ldilar.

Ayniqsa, tarixning burilish nuqtalarida individuallik o'zini namoyon qildi. Jamiyat, uning iqtisodiy va ma'naviy rivojlana borishi bilan individuallik o'z mavqeini mustahkamlab bordi. Ayniqsa, ta'limning, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi shaxslarda individuallik rivojlanishi uchun yangi davrni boshlab berdi.

Insoniyat jamiyatning yangi tipi – axborotlashgan jamiyatga o'tayotgan hozirgi davrida jamoaviylik va individuallik axloqiy tamoyillari murakkab, ziddiyatli munosabatlarda bo'lib, o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Turli bilim shakllarining rivojlanishi, fan va texnologiya taraqqiyoti shaxslardan zamonaviy bilim, ijodkorlik, yuksak mas'uliyatni talab qilmoqda. Inson kapitali jamiyatning asosiy boyligiga aylana borishi shaxslarning individual xususiyatlari, insoniy fazilatlari, bilim va ma'naviyatlari taraqqiyotiga undaydi. Hozirgi davrning murakkab ijtimoiy hayoti har bir kishidan oqilona hayotiy pozitsiyani, malaka va ko'nikmalarini, kasbiy layoqatlarini tinimsiz takomillashtirib borishini taqozo qiladi.

Shu bilan bir qatorda, hozirgi taraqqiyot tezligi davrida individuallik o'zining ma'lum ma'nodagi ziddi – egoizmga o'sib o'tish xavfi mavjud. Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" kitobida qayd etganidek, "Jaholatdagi shaharlar aholisi maqsadlarini ko'zlaydigan (obro'-izzatga, mol-dunyoga, boylikdan rohatlanishga intiladigan) odamlarni fozillar shahrida haligi (yomon) maqsadlar bilan yashash taqiqlanganini ko'rib, u yerdagi (adolat) qonunlarini buzishga, haqiqatga aloqador narsalardan uzoqlashishga, (bu qonun-qoidalarni, tasavvurlarni) buzib aks ettirishga urinadilar..."[3;234]. Bu xavf har doimo mavjud bo'lgan bo'lsada, jamoaviylik tafakkurining ustunligi sharoitida ijtimoiy

xavfli tus olmagan, jamoaviylik tafakkuri tomonidan tiyib borilgan. Hozirda inson erkinliklarining, demokratik tafakkurining rivojlanishi, moddiy va ma'naviy hayot imkoniyatlarining yaxshilanishi egoizm uchun qulay muhit yaratmoqda. Jamoat ma'naviyati bilan hisoblashmaslik, o'zining egoistik, ko'pincha vaqtinchalik, cheklangan manfaatlarini jamoa va kelajak manfaatlaridan ustun qo'yish, umumiy, umuminsoniy manfaatlar bilan hisoblashmaslik, tor egoistik manfaatlar doirasida noilmiy, umuman, zararli, asossiz "bilimlar" ta'sirida dunyoviy, hayotbaxsh faoliyatdan chetlashib qolish jarayoni kechmoqda, jamiyat axloqiga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlar keng yoyilmoqda. Ayniqsa, bu jarayon G'arb mamlakatlari uchun taalluqli.

Xulosa va takliflar. Biz yuqoridagi mulohazalarga asoslanib jamoaviylikni 2 tipga ajratamiz: ratsional va totalitar jamoaviylik.

Ratsional jamoaviylikning asosiy mezonlari taraqqiyot bo'lib, umuminsoniy, milliy axloqiy qadriyatlarni saqlab qolgan Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya, Singapur va boshqa mamlakatlar madaniyatlarida jamoaviylik axloqiy tamoyili ustuvor bo'lsada, shaxslarning bunyodkorlik intilishlariga, nisbatan erkinliklariga to'siq bo'layotgani yo'q.

Bu borada O'zbekiston ham axborotlashgan jamiyatga o'tish sharoitida jamoaviylik va individuallikning oqilona nisbatini shakllantirmoqda. Natijada, milliy o'ziga xos qadriyatlarimizga tayangan va uni rivojlantirgan holda shaxslarning bunyodkor individualligi, axloqiy takomili uchun zamin yaratdi.

Hayotni yuzaki aks ettiradigan, ammo ma'naviy yuksak g'oyalarga undamaydigan ommaviy madaniyat shaxsni yaxlitlikdan mahrum qiladi, parchalaydi, unga cheklangan xususiyatlar berib, toraytiradi. Individuallikning parchalovchi kuchi haqida rus faylasufi V.Solovev XIX asrdayoq bunday deb yozgan edi: "Hozirgi G'arbda individuallikning haddan tashqari rivojlanishi o'zining qarama-qarshisiga – umumiy shaxssizlik va hayosizlikka olib boradi. Shaxs ongining o'ta taranglashuvi o'ziga mos predmetni topa olmasdan, hammani tenglashtiradigan bo'sh va mayda egoizmga o'tadi" [4;25].

Jamiyat axborotlashuvining kuchayishi inson ma'naviy rivojiga katta imkoniyatlar, ob'ektiv sharoitlar yaratsa-da, umumiy hayot va faoliyat muhiti individuallikni kuchaytiradi. Jamoaviylik shaxs taqdiri uchun ta'sirga ega bo'lmagan, vaqtincha, yuzaki, hatto, ba'zan ortiqcha, zararli tuyulgan betizgin erkinlik sharoitida egoistik kayfiyatlar ustun bo'la boradi. Axloqsizlikning asosiy manbai individuallik emas, mutlaqlashtirilgan egoizmdir. Egoizm aksilmadaniyat, aksilaxloqiy jarayonlarga keng yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Козловский В. В., Федотова В. Г. В поисках социальной гармонии (Социальная справедливость и социальная ответственность). Свердловск: Изд-во Уральского ун-та, 1990. - 207 с.; А.А.Радугина. Психология и педагогика. - М.: "Центр", 1997.; Магура М.И., Травин В.В. Индивидуальные ресурсы. - М.: 2007; Trafimow D., Triandis H.C. & Goto S. Some tests of the distinction between private self and collective self. *Journal of Personality and Social Psychology* 60, 1991. 649—655.; Triandis H.C., McCusker C. & Hui C.H. Multimethod probes of individualism and collectivism. *Journal of Personality and Social Psychology* 59, 1990. P. 1006—1020.

2. Спивак В.А. Корпоративная культура. -СПб., 2000; Тощенко Ж. Т. Парадоксальный человек. - М.: 2001; Карпов А.В., Козлов В.Д., Козлова А.А. Корпоративная культура: «костюм» успешного бизнеса // Управление персоналом. 2000. - № 2.; Скитяева И.М., Волкова Н.В., Ямщиков И.А. Организационная культура: понятие и реальность. — М., 2002; Армстронг М. Стратегическое управление человеческими ресурсами / Пер. с англ. -М.: ИНФРА-М, 2002. - 384 с.; Бауман З. Индивидуализированное общество / Под ред. Иноземцева В.Л. -М.: Изд-во «Логос», 2002. 390 с.; Иванова С.Ю., Аракелян Э.А. Становление гражданской идентичности в полиэтническом социуме // Вектор идентичности на постсоветском пространстве: Материалы международного «круглого стола». Ростов-на-Дону, 2007. -С.76-77.; Могутнова Н.Н. Корпоративная культура: понятие, подходы // СОЦИС. -2005. -№ 4. -С.130- 136.

3. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. -Т.: Янги аср авлоди. 2016. - Б.260.

4. Соловьев В.С. Три силы. // Соч. В 2-х – М., 1989. – Т. 1 – С.25.